

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIK DARSLARIDA ERTAK JANRINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIK TIZIMI

Solixova Shaxzoda Shuhrat qizi

Fan va texnologiyalar universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 401-guruh talabasi

Erkinova N

Ilmiy rahbar: Pedagogika kafedrasi dotsent v.b.f.f. f.d.(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'shlang'ich sinif o'qish savodxonligi darslarida ertak janrini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va bu jarayonda zamonaviy metodik tizimni qo'llash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda ertaklarni tahlil qilishda o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini oshiruvchi interfaol metodlar jumladan "Aqliy hujum, Piramida chizmasi, Venn diagramasi, Inser, Ro'lli o'yinlar" ning samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, dars jarayonida raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanishning metodik afzalliklari va o'quvchi faolligi oshirishdagi o'rni yoritib berilgan.. Maqola yakunida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy dunyo qarashini shakllantirishda ertak janrining o'rni haqida xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, ertak janri, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, metodik tizim, nutq madaniyati, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ijodiy tafakkur.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности преподавания жанра сказки на уроках чтения в начальной школе и вопросы использования современной методической системы в этом процессе. Исследование обосновывает эффективность интерактивных методов, развивающих логическое и творческое мышление учащихся при анализе сказок, включая "мозговой штурм, построение пирамид, диаграмму Венна, вставку, ролевые игры". Также освещаются методические преимущества использования цифровых технологий и мультимедийных инструментов в учебном процессе и их роль в повышении активности учащихся. В заключение статьи представлены выводы и рекомендации относительно роли жанра сказки в формировании духовно-нравственного мировоззрения младших школьников.

Ключевые слова: грамотность чтения, жанр сказки, начальное образование, интерактивные методы, инновационный подход, методическая система, культура речи, духовные и моральные ценности, творческое мышление.

Abstract: This article discusses the specific features of teaching the fairy tale genre in elementary school reading literacy classes and the issues of using a modern methodological system in this process. The study substantiates the effectiveness of interactive methods that enhance students' logical and creative thinking in analyzing fairy tales, including "Brainstorming, Pyramid Drawing, Venn Diagram, Inser, Role-playing games". It also highlights the methodological advantages of using digital technologies and

multimedia tools in the lesson process and their role in increasing student activity. At the end of the article, conclusions and recommendations are presented on the role of the fairy tale genre in forming the spiritual and moral worldview of younger schoolchildren.

Keywords: *reading literacy, fairy tale genre, primary education, interactive methods, innovative approach, methodological system, speech culture, spiritual and moral values, creative thinking.*

Xalq og'zaki ijodida ertak janirining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligi real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi. Ertakni qanday qilib bolajonlarga o'qitishdan oldin keling ertak degani o'zi nima? degan savolga javob olish maqsadida "Ertaklar olamiga" sayohat qilsak. Ertak-xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biridir. Ertakning paydo bo'lishida qadimiy urf-odat, marosimlar, tabiat hodisalari, jonivorlar muhim o'rin tutgan. Hayot haqiqati bilan bo'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega og'zaki hikoyalar ertak deyiladi. Ertakning ba'zi bir viloyatlarda boshqacha atamasi ham uchraydi:

◇ Surxondaryo, Samarqand, Farg'onada-Matal;

◇ Buxoro atrofidagi ba'zi qishloqlarda-Ushuk;

◇ Xorazmda-Varsaki;

Toshkent shahri va uning atrofida Cho'pchak atamasi ham ishlatiladi. Ertak aytuvchilarni qadimda "ertakchi", "matalchi" deb atashgan. E'tibor bersangiz, ertaklarda ijobiy qahramon, albatta, yovuzlik, adolatsizlik, zulum ustidan g'alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifodalaydi. ²⁸Ertaklar turli mavzularda bo'lishi mumkin. Ular shartli ravishda:

➤ Hayvonlar haqidagi ertaklar;

➤ Sehrli ertaklar;

➤ Hayotiy-maishiy ertaklar;

➤ Hajviy ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklardagi asosiy mazmun majoziy, ya'ni ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Masalan: Ayyorlik va munofiqlik-Tulki, Qonxo'rlik, laqmalik-Bo'ri orqali ifoda etiladi. Sehrli Ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastic uydirmalar asosiga qurilgan, asr qahramonlari har narsa qo'lidan keladigan mo'jizakor kimsalar, jonlantirilgan narsa yoxud hayvonlardan iborat bo'ladi. Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz "Hayotiy-Maishiy Ertaklar" deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning aksaryati hayotga yaqin, hayotdan olingan.

➤ Zumrad va Qimmat;

➤ Oygul bilan Baxtiyor;

²⁸ Shohruh po'latov Adabiyot qulay qo'llanma "Regbooks" nashriyoti.Toshkent-2021.

- Ziyod botir;
- Tohir va Zuhra;
- Ozodachehra;
- Malikayi Husnobod;
- Uch og'a-ini botirlar va yana shunday ertaklar sirasidan.

Ertaklarni ham tinglaymiz, ham o'qiymiz. Tinglaydigan ertaklarimiz ertakchilar tomonidan qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Ertakchilar shunchaki hikoya qilmaydilar. Har bir ertakchi u yoki bu ertakni qayta yaratadi, desak, xato bo'lmaydi. O'zbek adabiyotida xalq ertaklari asosida yaratilgan she'riy nasriy asarlar teatr va kinoda ham o'z aksini topgan. Qiziqarli ertaklar asosida yaratilgan sahna asarlari, kinofilmlar, multafilmlarni sevib tomoshqa qilinmoqda. Ko'p ertaklar - "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podshoh yoki cho'pon bo'lgan ekan" kabi qisqagina boshlanmalar bilan boshlanadi. Ba'zi boshlanmalar ancha uzun bo'ladi. "Ertagiyo ertagi, echkilarning bo'rtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, ko'k muzga mingan ekan, murti singan ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasavul ekan, ertagimning sheri bor, yeti kunlik yeri bor, yeti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor. Bir bor ekan bir yo'q ekan. "Ko'pchilik ertaklar," Qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berib, oshlarini oshab, yoshlarini yashab, murod-maqсадlariga yetibdilar", kabi tugallanmalar bilan yakunlanadi. Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin: 1.Ertak bilan tanishtirish: a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash; b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo. 2.Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish; 3.Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish); 4.Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish); 5.Ertakni so'zlab berish; 6.Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish); 7.M a'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar); 8.Vazifani tekshirish va yakunlash; 9. Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.²⁹ Metodikaga oid misollarni keling jadval ko'rinishida ko'rib chiqsak.

(1-jadval).

Metod nomi	Mohiyati (Ta'rifi)	Misol (masalan, ertak misolida)
Bumerang metodi	Ertak mazmunini tezkor tahlil qilish va qayta hikoyalash.	"OLTIN BALIQ" O'quvchilarga ertak qisimlarini bo'lib beriladi. Har bir guruh o'z qismini o'rganib, boshqa guruhlariga "boomerang" kabi ma'lumotni yetkazadi.
Sinkveyn (beshlik)	Qahramon obraziga aniq ta'rif berish va so'z boyligini oshirish.	"ZUMRAD va QIMMAT"ertagida Zumrad obraziga: 1.Kim? (Zumrad);

²⁹ Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova va b. "Ona tili O'qitish Metodikasi". <<Bayoz >> nashryoti Toshkent-2024.

		2.Qanday qiz? (odobli mehnatkash); 3.U notanish onahonga nima qiladi? (uy yumushlarida yordam beradi).
Insert metodi	Matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.	“SUSABIL”:O'quvchilar o'qish jarayonida bilganlariga “v”,yangi ma'lumotga “+”,tushunmagan,bilmagan joylariga“?” belgisini qo'yib chiqadi.
Ertak-mozaika	Bu o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.Eslab qolish qobiliyatini ya'ni xotirani o'tkirlaydi.	“UCH OG'A-INI BOTIRLAR”. O'qituvchi ertak voqealarini aralashtirib kesib beradi.O'quvchilar to'g'ri jumlani topib joylashtirib berishadi.

“Piramida” metodi-g'oyalarni pastdan yuqoriga qarab tizimli shakllantirish va bosqichma-bosqich umumlashtirish usulidir.Ertaklarni o'qitishda bu metod o'quvchilarning mazmunni izchil tahlil qilishiga,asosiy g'oyani aniqlashiga va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.



Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Piramida metodi yordamida ertak asosiy bosqichlarga ajratiladi. O'quvchilar ertak mazmunini tahlil qila oladilar. Qahramonning yaxshi-yomon xatti-harakatlarini farqlaydilar. Ertakdan o'quvchilar uchun tarbiyaviy xulosa, muammo kelganda darhol qo'rqmaslik kerak-fikrlash va to'g'ri qaror tanlash muhim. Har kimning o'ziga xos qobiliyati bor,uni to'g'ri ishlatish zarur. Do'stlari bilan munosabatda ham doimo kamtar,oqilona bo'lish kerak.

Hozirgi “Z avlodi” (alfa avlod) ma'lumotni tezkor, visual va qiziqarli tarzda qabul qilishiga o'rgangan. Ularga shunchaki ma'ruza o'qitish emas, balki “o'yin ichida o'qitish” samaraliroq. Masalan: Gamifikatsiya ya'ni o'yinlashtirish orqali darsni kichik sarguzasht yoki musobaqaga aylantirish. Aziz do'stlar sizlarda ham bu qanday ?,qay tarzda qo'llaniladi ?-degan savol bo'lsa,biz bunga oson yechim qilamiza. KAHOOT!, QUIZZ

yoki WORDWALL kabi platformalardan foydalanib, dars ohirida telefonlar orqali tezkor tezkor test o'tkazish. Bu esa o'quvchilarda g'alaba qozonish ishtiyoqini uyg'otadi va o'tilgan mavzuni xotirada qattiq muhrlanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida quyidagi yakuniy to'xtamlarga keldik:

- darslarda an'anaviy usullardan voz kechib, interfaol metodlarni (masalan, klaster, muammoli vaziya, qayta hikoyalsh, piramida usuli va h.k larni) qo'llash o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa darsdagi o'tilgan mavzularning xotirada uzoq saqlanishini ta'minlaydi.

- ertak janrini o'qitish-shunchaki matn bilan tanishish emas, balki o'quvchining ma'naviy dunyosini shakllantirish va estetik didini o'stirishning muhim vositasidir. Ertaklar bolaning mantiqiy tafakkurini o'stirish bilan birga, unda hayotiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarning ilk poydevorini shakllantiradi.³⁰

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limning savodxonlik darslarida zamonaviy interaktiv va interfaol metodlarni ta'lim turiga hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos ravishda, qiziqarli va tushunarli usullarda qo'llash (transformatsiya qilish) lozim. Bu yondashuv darsning samaradorligini kafolatlash bilan birga, bolalarda kitobxonlika ya'ni kitob o'qishga bo'lgan mehr va qiziqishni uyg'otadi. Ertak o'qitishning metodik asoslarini takomillashtirish - bugungi kun ta'lim oluvchisining nutq boyligini oshirish va uni komil inson qilib tarbiyalashning eng samarali yo'llaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova. Ona tili O'qitish metodikasi: Bayoz nashriyoti. Toshkent:- 2024.

2. M.F.Hakimova, Sh.E.Mamarajabov. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma.-Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi, 2021-160 b.

3. Abdurahmonov G', Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti: - Toshkent: O'zbekiston, 2002.

4. Abdullayev Y. Nutq o'stirish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1998.

5. Sh.Po'latov. Adabiyot qulay qo'llanma."Regbooks" nashriyoti. Toshkent-2021.

6. Erkinova N. E. Eshqobil Sh. Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari. Toshkent: 2019 - 46 b.

7. Zunnunov A. Adabiyot o'qitish metodikasi.-Toshkent: Sharq. 2002. - 54 b.

8. Inlibrary.uz

9. Dialnet.unirioja.es

10. Cyberleninka.ru.

³⁰ Zunnova A. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: "Sharq", 2002.-B.54.